XALQ DEPUTATLARI MIRZO ULUG‘BEK TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr II-98-189-14-200-K/23 Mirzo Ulug‘bek tuman hokimligi

Mirzo Ulug‘bek tumanida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2024-yilda soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsientini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-659-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash hamda Mirzo Ulug‘bek tumani Soliq inspeksiyasining 2023-yil 5-dekabrdagi 19/1-48709-sonli xatini inobatga olib, 2024-yilda Mirzo Ulug‘bek tumanidagi yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig‘i bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientini kiritish va qo‘llash maqsadida Xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-659-sonli Qonuniga muvofiq Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga kiritilgan o‘zgarishlarni inobatga olib, tuman Davlat soliq inspeksiyasining 2024-yil uchun Miizo Ulug‘bek tumani bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsientlar yuzasidan kiritilgan taklifi ma’qullansin.

2. Qarorga binoan 2024-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi tartiblar joriy etilsin:

yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha mutloq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsientlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mirzo Ulug‘bek tumani Davlat soliq inspeksiyasi (D.Usmanov):

Mirzo Ulug‘bek tumani Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan budjet

daromadlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish, qo‘shimcha soliq zaxiralarini aniqlash va soliqqa tortish hamda tumanni iqtisodiy salohiyatini oshirish maqsadida zaruriy chora-tadbirlar ko‘rish hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashiga har chorak yakuni bo‘yicha ma’lumot kiritib borsin.

4. Xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashining 2023-yil 7-yanvardagi “Mirzo Ulug‘bek tumanida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2023-yilda soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsientini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-74-2-14-200-K/23-sonli qarori 1-yanvar 2024-yildan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashining Mahalliy budjet iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi B.Muxamedov, Mirzo Ulug‘bek tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.Saidaliyev), Mirzo Ulug‘bek tumani Davlat soliq inspeksiyasi (D.Usmanov), tumandagi tegishli okruglardan saylangan deputatlar va fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari raislari bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan yuridik va jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahalla kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish va qo‘llash tartibi joriy etilganligini keng targ‘ib qilish, aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarni olib borish vazifalari yuklatilsin.

6. Mirzo Ulug‘bek tumani matbuot xizmati (M.Parmonov) va tuman Davlat soliq inspeksiyasi:

mazkur qarordan kelib chiqqan holda, yuridik va jismoniy shaxslarning yer soliqlari bo‘yicha belgilangan stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni tuman hokimligi veb-sayti, ommaviy axborot vositalari, gazeta va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishi ta’minlansin.

7. Mazkur qaror 1-yanvar 2024-yildan kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashining Mahalliy budjet iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi B.Muxamedov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Sh.T.Irgashev**

Xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
II-98-189-14-200-K/23-son qaroriga
1-ilova

Mirzo Ulug‘bek tumanida qishloq xo‘jaligi uchun muljallanmagan yerlar uchun yuridik hamda jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Iqtisodiy Zonasi	Noturar Koeffisient (0,7 dan 3.0 gacha)	Turar Koeffisient (0,7 dan 3.0 gacha)
1	Avayxon	3	1,2	1,1
2	Azamat	4	1,2	1,1
3	Alisher Navoiy	3,4	1,2	1,1
4	Alpomish	2	1,2	1,1
5	Al-Farobiy	4	1,2	1,1
6	Asaka	1	1,2	1,1
7	Axillik	4	1,2	1,1
8	Axmad Yugnakiy	4,5	1,2	1,1
9	Bahor	3	1,2	1,1
10	Beshkapa	4	1,2	1,1
11	Bog‘imaydon	4	1,2	1,1
12	Bo‘z	2	1,2	1,1
13	Buyuk Ipak yo‘li	2	1,2	1,1
14	Gulsanam	3	1,2	1,1
15	Darxon	2	1,2	1,1
16	Kamolot	4	1,2	1,1
17	Katta Qorasuv	4	1,2	1,1
18	Katta Oltintepa	3	1,2	1,1
19	Katta Yalang‘och-ota	4	1,2	1,1
20	Lashkarbegi	1	1,2	1,1
21	Minglola	3	1,2	1,1
22	Mirzakalon Ismoiliy	2	1,2	1,1
23	Munavvarqori	4	1,2	1,1
24	Mustaqillik	1	1,2	1,1
25	Navnihol	3,4	1,2	1,1
26	Nodirabegim	3	1,2	1,1

27	Nur	1	1,2	1,1
28	Oqibat	1	1,2	1,1
29	Oqqurg‘on	2	1,2	1,1
30	Oliy Ximmat	3,4	1,2	1,1
31	Olimlar	3	1,2	1,1
32	Olmachi	2	1,2	1,1
33	Oltintepa	3	1,2	1,1
34	Podshobog‘	2	1,2	1,1
35	Sayram	2	1,2	1,1
36	Sultoniya	4	1,2	1,1
37	Traktorsozlar	4	1,2	1,1
38	Turon	2	1,2	1,1
39	Uyg‘onish	4	1,2	1,1
40	Ulug‘bek	5	1,2	1,1
41	Feruza	4	1,2	1,1
42	Xabib Abdullaev	4	1,2	1,1
43	Xamid Olimjon	1	1,2	1,1
44	Xumoyun	4	1,2	1,1
45	Chimyon	4	1,2	1,1
46	Shalola	4	1,2	1,1
47	Shaxriobod	4	1,2	1,1
48	Shaxrisabz	1	1,2	1,1
49	Shukur Burxonov	4	1,2	1,1
50	Sho‘rtepa	4	1,2	1,1
51	Elobod	2	1,2	1,1
52	Yuzrabod	4	1,2	1,1
53	Yalong‘och	4	1,2	1,1
54	Yangi Avayxon	3	1,2	1,1
55	Yangi kamolot	4	1,2	1,1
56	Yangi olmachi	2	1,2	1,1
57	Oydin	2	1,2	1,1
58	Temuriylar (Amir Temur)	5	1,2	1,1
59	Ko‘hna mevazor (Mevazor)	5	1,2	1,1
60	Sarbon (Gulbog‘)	5	1,2	1,1

61	Gulzorobot (Gulzor-1)	5	1,2	1,1
62	Geologlar (Taraqqiyot)	5	1,2	1,1
63	Geofizika	5	1,2	1,1
64	Jasorat (Vatanparvar)	5	1,2	1,1
65	Alisherobod	5	1,2	1,1
66	Zakovat (Bog‘ishamol)	5	1,2	1,1
67	Ijodkor (Barkamol)	5	1,2	1,1
68	Iqtidor (Do‘stlik)	5	1,2	1,1
69	Chingeldi	5	1,2	1,1
70	Pastki yuz	5	1,2	1,1